

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARINING HUDUDIIY EKOTIZIMLARGA TA‘SIRI VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Kayumova Odinabonu

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Usmonova Feruzaxon

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20552559>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda global miqyosda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan iqlim o‘zgarishi jarayonlari va ularning Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hukuqiy ekotizimlariga ko‘rsatayotgan salbiy oqibatlarini tahlil qilinadi. Antropogen omillar ta‘sirida havo haroratining ko‘tarilishi, suv resurslarining kamayishi va cho‘llanish jarayonlarining jadallashuvi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada global ekologik inqirozlarning oldini olishda jamiyatda, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ekologik madaniyat va daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *global iqlim o‘zgarishi, ekotizim, Orol fojiasi, suv resurslari, cho‘llanish, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, antropogen omil.*

KIRISH

XXI asrga kelib insoniyat intellektual va texnologik taraqqiyotning yuksak cho‘qqisiga erishgan bo‘lsa-da, ayni paytda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatning keskin buzilishi natijasida kelib chiqqan global ekologik muammolar qarshisida ojiz qolmoqda. Ushbu muammolar orasida global iqlim o‘zgarishi, issiqxona effektining kuchayishi va ekotizimlarning degradatsiyaga uchrashi insoniyatning kelgusi taqdirini xavf ostiga qo‘yuvchi asosiy omillar sifatida baholanmoqda. Iqlim o‘zgarishi nafaqat alohida bir mintaqaga yoki davlatning, balki butun Yer sayyorasining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan umumbashariy tahdidir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash strategiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan xalqaro minbarlarda, xususan, BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida iqlim o‘zgarishlariga qarshi birgalikda kurashish va Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish bo‘yicha global tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shu sababli, iqlim o‘zgarishining hududiy ta‘sirini o‘rganish va yosh avlod ongida atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli munosabatni tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHINING MINTAQAVIY KO‘RINISHLARI VA SUV MUAMMOSI

Xalqaro iqlimshunos olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, sayyoramizda o‘rtacha havo haroratining ko‘tarilishi arid (qurg‘oqchil) zonalarda, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida global ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha tezroq namoyon bo‘lmoqda. Muzliklarning erishi, daryolar havzasida suv resurslarining kamayishi va vegetatsiya davrida qurg‘oqchilik kunlarining uzayishi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Amudaryo va Sirdaryo suvlarining kamayishi, shuningdek, gidrometeorologik xavf-xatarlarning ortishi mintaqamizning barcha tarmoqlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Mintaqamizdagi eng yirik ekologik fojia — Orol dengizining qurishi iqlim o‘zgarishi jarayonlarini yanada jadallashtirdi. Dengizning qurigan tubidan ko‘tarilayotgan tuz va chang bo‘ronlari minglab kilometr masofaga tarqalib, atrofdagi muzliklarning erishini tezlashtirmoqda

hamda tuproq unumdorligini pasaytirmoqda. Bu holat tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik qonuniyatlarga amal qilmaslik qanday muhim oqibatlar olib kelishini ko'rsatuvchi yaqqol misoldir. Muammoni bartaraf etish faqatgina texnik yechimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tabiatga bo'lgan falsafiy va axloqiy munosabatni tubdan o'zgartirishni talab etadi.

JAMIYATDA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH ZARURIYATI

Ekologik inqirozlarning ildizi faqatgina sanoat korxonalarini yoki texnologik jarayonlarga borib taqalmaydi; ularning asosiy sababi insonlar tafakkuridagi va kundalik hayotidagi ekologik madaniyatning yetishmasligidir. Tabiatga faqatgina iste'molchilik nuqtai nazaridan yondashish, suvni isrof qilish, yashillikni asrashga e'tiborsizlik qilish kabi salbiy holatlar ekologik muammolarni mahalliy darajada chuqurlashtiradi. Shu bois, global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning eng samarali strategiyasi — bu har bir shaxsda ekologik ong va daxldorlik madaniyatini tarbiyalashdir.

Ajdodlarimiz merosiga nazar tashlasak, muqaddas zaminimizda azaldan suvni muqaddas bilish, uni isrof qilmaslik, bir tup daraxt kessang, o'n tup ko'chat ek kabi tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillari milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda keng qon quloq yozgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi ham aynan ushbu azaliy an'analarning zamonaviy davomidir. Ushbu loyihada yoshlarning faol ishtirok etishi shunchaki daraxt ekish emas, balki global isish jarayonlariga qarshi amaliy hissa qo'shish va kelajak uchun yashil ekotizim barpo etish mas'uliyatini anglash demakdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, global iqlim o'zgarishi shunchaki tabiat hodisasi emas, balki insoniyatning ekologik mas'uliyatsizligi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-ekologik muammodir. Ushbu umumbashariy xavfni bartaraf etish va uning salbiy ta'sirlarini yumshatish uchun xalqaro hamkorlik bilan bir qatorda, har bir davlat ichida, har bir ta'lim muassasasida tizimli ishlar olib borilishi shart.

Yosh tadqiqotchilar va talabalar sifatida global muammolarning hududiy oqibatlarini o'rganish, jamiyatda ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini targ'ib qilish bizning fuqarolik burchimizdir. San'at, ilm-fan va innovatsion texnologiyalarni ekologik maqsadlarga yo'naltirish orqali biz kelajak avlod uchun toza, xavfsiz va yashil sayyorani asrab qolishga erisha olamiz. Tabiat bilan muloqotda uyg'unlikni tiklash — insoniyatning yashab qolishi va barqaror taraqqiyotining yagona kafolatidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. IPCC, 2023: *Climate Change 2023: Synthesis Report. Contribution of Working Groups I, II and III to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change*. IPCC, Geneva, Switzerland.
2. Rafikov, A. A. (2018). *Geoekologiya muammolari va ularning hududiy ko'rinishlari*. Toshkent: Fan.
3. Nazarov, I. K. (2021). *Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi va suv resurslari xavfsizligi*. Ekologiya xabarnomasi jurnali, 4(12), 15-22.
4. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy hisobotlari.